

## **O'QUVCHILARNING MANTIQUIY FIKRLASHIDA MATEMATIKA DARSLARIDAGI AMALIY MASHQLARNING O'RNI.**

*Toshmirzoyeva E`zoza*

*FarDU talabasi*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematika darslarida mantiqiy fikrlash jarayonida amaliy mashqlarning o'rni haqida qisqacha fikrlar yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** Matematika, mantiq, tahlil, sintez, mulohaza, yechim, tafakkur, masala, raqamli inqilob, yechim.*

Barchamizga ma'lumki, inson boshqa mavjudotlardan ongi va fikrlash qobiliyatining mavjudligi bilan farqlanadi. Inson hamma vaqt, kundalik hayotda ham, ish faoliyatida ham fikr yuritadi. Ammo mantiq ilmini bilmasdan turib fikr yuritish mushkul. Mantiq olamdagi qonuniy, zaruriy bog'lanish va aloqalar, tartib va izchillilik, tafakkurning ichki aloqadorligi, turli qarashlar orasidagi mantiqiy bog'lanishlarni o'z ichiga olgan bo'lib, insonni hech bir narsaga befarq bo'lmay, sinchkov qarashga, har bir voqea-hodisaga holis baho berishga, shu yo'l bilan muntazam va izchil fikr yuritish va har qanday oqilona fikrni isbotlay bilishga o'rgatadi. Mantiqiy fikrlash orqali inson o'zini anglay boshlaydi. Mashhur yunon faylasufi Suqrot " O'zingni bilsang — olamni bilasan" degan edi.

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda quyidagilar muhim:

1. Tahlil qilish;
2. Sintez qilish;
3. Tushunchalar bilan ishlash;
4. Xulosa chiqarish;
5. Mulohaza yuritish, bahslashish;

6. Mustaqil fikrlash odatini rivojlantirish;
7. G'ayrioddiy yechimlarni izlash.

Bugungi kunda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun matematik misol va masalalar muhim o'rin tutmoqda. Kichik maktab yoshidagi bolalarning Matematika darsliklarida berilgan amaliy topshiriqlar, fikrlashga undovchi misol va masalalar o'quvchilarning mantiqiy fikrlash salohiyatini oshirmoqda. Bola maktabga kelgan birinchi kundan boshlab masalaga duch keladi. Masalalar esa aqlni charxlaydi, o'ylashga va mulohaza yuritishga undaydi. Matematik masalalar mantiqiy izchillikda davom etadi. Darsliklardagi har bir topshiriq o'quvchining yoshi, intellektual salohiyatidan kelib chiqqan holda beriladi. Piramida ko'rinishida berilgan misollarda mantiqiy davomiylik yaqqol aks etadi.

Biror bir masalani ishlashda mantiqiy tafakkur alohida ahamiyatga ega. Misol uchun: " Fermada tovuq va qo'ylar boqiladi. Tovuqlarni jami oyoqlari soni 108 ta, qo'ylarning jami oyoqlari soni 96 ta bo'lsa, fermada nechta tovuq va qo'y boqiladi" masalasini olsak. Bunda o'quvchi birinchi navbatda tovuqda 2 ta, qo'yda esa 4 ta oyoq bo'lishini mantiqan bilishi zarur, shundan so'ng tovuqlarning jami oyoqlari sonini ikkiga bo'lishni, qo'ylarning jami oyoqlari sonini to'rtga bo'lishni tushunadi. Mantiqiy tafakkurni o'stiruvchi masala va misollarni yechishda qulay va oson bo'lgan metod va usullar mavjud. Umumiy o'rta ta'lim milliy o'quv dasturi metodologiyasining asosiy vazifalari sirasida o'zining "men" ligi, intellektual salohiyati, ma'naviyati va dunyoqarashi ustida mustaqil ishlash hamda XXI asr ko'nikmalarini tanqidiy-kreativ fikrlash, ijodkorlik, hamkorlikda ishlash, muammolarga yechim topshni o'quvchilarda shakllantirish belgilab berildi.

Mantiqiy tafakkurni rivojlantiruvchi metodlar:

- 1) " Kichik tadqiqotchi" metodi
- 2) " Qiziqarli suhbat" metodi
- 3) " Reyting" metodi
- 4) " Modellashtirish" metodi

5) " Raqamli inqilob" metodi

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda matematika darsliklaridagi misol, masala va amaliy topshiriqlar fundamental vazifani bajaradi. Dastlabki matematik tafakkurni shakllantirish va uni kengaytirish uchun sodda masalalardan murakkabga qarab borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bolaning har bir topshiriqni ongli ravishda , mantiqiy izchilligini tushungan holda yechim topishi mantiqiy fikrlash salohiyatini yanada oshiradi.

Adabiyotlar:

1. N.U.Bikbayeva, Z.I.Ibrohimova,X.I.Qosimova.Matematika o'qitish metodikasi. Toshkent. O'qituvchi.1
2. G`oziev E . Pedagogik psixologiya . 1-kitob . T. : Universitet 1997
3. Maxsudova M.A. Muloqot psixologiyasi. T . : 2006
4. To'xtasinov F .D. –Central Azian Journal of Education . 2018
5. Yunosova D . Bo'lajak matematika o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashning nazariyasi va amaliyoti. Monografiya . T. , Fan . 2009
6. Muhammadkadirovna, G. D., Abdulhamitovna, S. H., & Qizi, R. D. T. (2022). The Role of Innovative Training Methods in Individualization Training. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 6, 272-279.
7. Qizi, R. D. T., & Qizi, M. F. M. (2021). Developing the critical thinking of primary school students. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 769-772.
8. Toyirovna, R. D. (2021). Critical Thinking Process in School Children. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 165-168.
9. Rustamova, D. (2023). The importance of a cognitive approach to learning synonyms in primary grades. *barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali*, 3(3), 32-36.

10. Niezova, M., & Rustamova, D. (2020). Ona tili darslarida oquvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi interaktiv va noan'anaviy metodlari. *Молодой ученый*, (4), 480-481.
11. Rustamova, D. T. K., & Mamajonova, F. M. K. (2022). STAGES OF ACTIVATING LEXICAL SYNONYMS IN THE SPEECH OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10), 750-756.
12. Болтабоев, М. (2022). Религиозные реформы, проведенные при соляном режиме. *Актуальные проблемы истории Узбекистана*, 1(1), 455-461.
13. Raxmonov, E. K. o'g'li, Qobilov, F. S. o'g'li, & Berdimuradov, X. T. o'g'li. (2023). RESPUBLIKAMIZDA YETISHTIRILAYOTGAN BUG'DOY DONLARINING FIZIK-KIMYOVIY KO'RSATKICHLARINING TAHLILI. *ILMIY TADQIQOT VA INNOVATSIYA*, 2(2), 95-101. Retrieved from <http://ilmiytadqiqot.uz/index.php/iti/article/view/144>
14. Qobilov, F. S. o'g'li, & Raxmonov, E. K. o'g'li. (2023). NON MAHSULOTLARINI TAYYORLASHDA QURUQ KLEYKOVINADAN QO'SHIMCHA SIFATIDA FOYDALANISH. *ILMIY TADQIQOT VA INNOVATSIYA*, 2(2), 58-63. Retrieved from <http://ilmiytadqiqot.uz/index.php/iti/article/view/139>
15. Sattorova, K. A. qizi, & Raxmonov, E. K. o'g'li. (2022). NON MAHSULOTLARINI SIFATINI OSHIRISHDA QO'LLANILADIGAN QO'SHIMCHALAR. *INTERNATIONAL CONFERENCES*, 1(1), 29-31. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/230>
16. Комилов, А., & Болтабоев, М. (2022). ЎЗБЕКИСТОН-УМУМИЙ УЙИМИЗ. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(3), 141-148.
17. Болтабоев, М. (2023). СОВЕТ ХУКУМАТИНИНГ МАДРАСАЛАРГА БЎЛГАН МУНОСАБАТИ ТАРИХИ. *IJTIMOIY FANLARDA INNOVATSIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(3), 115-119.

18. Akhmedjanova, F. D. (2022). THE INFLUENCE OF LEARNING STYLES ON LANGUAGE TEACHING AT SECONDARY SCHOOL. *Academic research in educational sciences*, 3(3), 5-9.
19. Djavairovna, A. F. (2022). The Impact of Learning Styles in Teaching English.
20. O'G'Li, X. T. X., Berdimuradov, E. K. O. G. L., BUG'DOY, R. N. U. T., & ASOSLASH, N. T. V. CARJIS. 2022.№ 10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/navli-un-tortishda-bug-doy-navlarini-tanlash-va-asoslash> (дата обращения: 29.03. 2023).
21. Akhmedjanova, Farida Djavairovna. "The role and influence of feedback at foreign language learning achievement." *Science and Education 2.Special Issue 2* (2021): 89-93.
22. Yuldashev, O. (2021). ТУПРОҚҚА ИШЛОВ БЕРУВЧИ АГРЕГАТ ШАРНИРЛИ БОҒЛАНИШЛИ ҚОЗИҚЧАЛАРИ БЎЛГАН БАРАБАНИНИНГ КОНСТРУКТИВ ЎЛЧАМЛАРИНИ АСОСЛАШ. *Agro protsessing*.